



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLARNING AHAMIYATI VA INTERFAOL USULLARNING QO'LLANISHI.

Xusanov Ravshan Ruzimurod o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol darslarning afzal jihatlari, an'anaviy darslardan farqlari yoritilgan. Interfaol mashg'ulotlar bolani fanga qiziqishini va o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari interfaol darslarda interfaol usullardan foydalanish, bolaga tasiri va darslarning qiziq bo'lishiga, darslarni mazmunli, tushunarli, ajoyib guruh bo'lib ishlashga yordam berishi haqida yoritigan.

**Kalit so'zi:** Ta'lif, dars, interfaol darslar, o'quvchi, o'qituvchi, metod, bilim, an'anaviy dars, texnologiya, ta'lif-tarbiya.

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lif tizimi sifatini yaxshilash, o'quvchilarga sifatli ta'lif berish. Buning uchun pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lif uchun zarur va ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lif mazmuning yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki dars ta'lif-tarbiya berishning asosiy o'zagidir. O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'lifning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lam avlod qilib voyaga yetkazishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi. Dars ta'lifning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayon o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar,adolatparvar, mehnatsevar va fidoyi kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlashi lozim. Bu jarayon o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida quyidagilarni amalda qo'llashni taqozo etadi:

- Darslarda interfaol usullardan keng foydalanish;
- Dars jarayonida didaktik materiallar bilan ishslash;
- Ommaviy axborot texnologiyalaridan uzluksiz foydalanish;
- O'quvchilarni innovatsion faoliyatga mustaqil tayyorlash;
- Fanlarni fanlararo integratsiyalash;

Demak, bugun interfaol darslarni tashkil qilish uchun interaktiv metodlarni amalda joriy etish, ta'lif samaradorligini oshirishda ma'lum maqsadga erishishda, o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan



boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, interfaol darslarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq etishi, ta'lifning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir.

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf uchun bilim, ko'nikma, malakani qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratса, o'qituvchining tajribasi oshib borishida ko'mak beradi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish o'z o'rniда juda samarali. Masalan, darsda ko'zlangan maqsadga erishishda, o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlashda, ularni darsga qiziqishini oshirish va faollikka undashda katta ahamiyat kasb etadi.

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lif-tarbiyasida bir nechta xususiyatlarga ega. Ularga alohida e'tibor qaratamiz. Interfaol darslarni tashkil etishning boshlang'ich sinf o'quvchilarida motiv(qiziqish) hosil qilishdagi o'rni beqiyos. Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. Ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni osonlashadi.

Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. O'quvchilarni o'quv materialiga qiziqtirshning birdan-bir yo'li interaktiv metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanishdir.

### An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar.

| Nº | Asosiy tushunchalar                  | An'anaviy dars  | Interfaol dars   |
|----|--------------------------------------|---|--|
| 1  | Qo'llanish darjasи                   | Barcha mavzular bo'yicha uchun qulay bo'lgan dars ri shaklida qo'llaniladi. | Ayrim mavzular bo'yicha interfaol ning qulay bo'lgan turlari shaklida aniladi. Boshqa mavzular uchun naviy dars qo'llaniladi |
| 2  | Dars maqsadi                         | Dars mavzusi bo'yicha, ko'nikma, malakalarni llantirish, mustahkamlash.     | Dars mavzusi bo'yicha mustaqil ash, xulosaga kelish, ularni bayon i, himoyalashga o'rgatish.                                 |
| 3  | O'qituvchining alari va ish usullari | Yangi mavzuni untirish, mustahkamlash, rat, topshiriqlar berish.            | O'quvchilarning mustaqil shlarini va taqdimotlarini kil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy salarni assoslab berish.        |
| 4  | Darsga orgarlikka talablar           | Dars rejasi, konsept va ktik vositalarni tayyorlash.                        | Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil r uchun topshiriqlar, tarqatma riallar, boshqa zarur vositalarni orlash.                 |
| 5  | O'quvchilar orgarligiga talablar     | Oldingi dars bo'yicha alarni bajarib kelish.                                | Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy unchalarni va dastlabki ma'lumotlarni.  |
| 6  | O'quvchilarning                      | O'qituvchini tinglash va  | O'qituvchi bergen topshiriqlarni   |



|    |   |   |   |
|----|---|---|---|
|    | ‘alari bajarish usullari                  | shtirish, berilgan hiriqlarni bajarish.   | ish bo‘yicha mustaqil fikrlash, o‘z fikr, salarini boshqalarga solishtirish va niy xulosaga kelish  |
| 7  | Vaqtaqsimoti                              | Dars vaqtining ko‘p qismi uvchining yangi mavzuni untirishi, tahlil qilishi, hiriqlarni tushuntirishi, shtirishni nazorat qilishiga anadi.  | Dars vaqtining ko‘p qismi uvchilarning mustaqil topshiriqlarni ishi, fikr almashishi, mushohada ni, o‘z xulosalarini bayon qilishi va yonalashiga sarflanadi.   |
| 8  | Darsning modul va ritmlari                | Darsning modul va ritmlaridan har bir o‘qituvchi qo‘llayotgan metodga ofiq foydalanadi.   | Har bir dars oldindan tayyorlangan ular va algoritmlarga, loyihalarga ofiq o‘tkaziladi.   |
| 9  | O‘quvchilardan qilinadigan faollilik jasi | O‘qituvchi har tomonlama o‘quvchilar diqqatni jamlash, unish, fikrlash, topshiriqlarni ish bo‘yicha faol.Muloqot llari:o‘qituvchi-guruh; o‘qituvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-o‘qituvchi; guruh-o‘qituvchi; | O‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham har onlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik llari: o‘qituvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-vchi; o‘quvchi-kichik guruh;kichik h-kichik guruh;o‘quvchi-uvchi; kichik guruh-o‘qituvchi; guruh-o‘qituvchi. |
| 10 | Bilimlarni shtirishning asosiy ari        | Muloqot, muhokama, okara, bahs, munozara, shaza, tahlil, mushohada, olaa va boshqalar.  | Muloqot, mutolaa, mushohada, okama, muzokara, bahs, munozara, shaza, tahlil va boshqalar.   |
| 11 | Mashg‘ulot shakllari                      | Ma’ruza, seminar, amaliy ular, laboratoriya ular, davra suhbati, bahs, ozara, konsultastiya va qalar.   | Ma’ruza, guruh yoki juft bo‘lib sh, taqdimotlar, bahs, munozara, davra ati, amaliy ishlar va boshqalar.   |
| 12 | Kutiladigan natija                        | Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, kalarini o‘zlashtirishlari.   | Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning o‘z xulosalarini shakllantirish, ularni aqil bilim olishga o‘rgatish.  |

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg‘ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko‘rsatadi.

Interfaol mashg‘ulotning ushbu jadvalda ko‘rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga olib kelish mumkin:

1. O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu



bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash kerak.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish kerak.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar ("Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?") qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan nazarda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorlarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishslash, mustaqil fikrlesh, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalarini va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf darslaridan interfaol usullarining qo'llanishi, kutilgan natijaga erishishning asosiy omili sanaladi. Shunday ekan, har bir darsda interfaol usullardan foydalanish yuqori darajada ijobiy natija bera oladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi PF-5712- sonli farmoni
2. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet
3. O`. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – Toshkent.Fan. 2006.-260bet
4. O'qituvchilar uchun turli xil qiziqarli ma'lumotlar veb saytidan.
5. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: O'qituvchi, 2004 yil.
8. R.Yo'ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta'limning interfaol metodlari(metodik qo'llanma). Urganch-2011.
9. Sobirova M.R. O'zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish Молодойченый. – 2020. - № 14 (304).
10. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).